

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOJXONA KODEKSIGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTISHLAR KIRITISH TO'G'RSIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 24-avgustda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2021-yil 21-oktabrda ma'qullangan

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvarda qabul qilingan O'RQ-400-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016-yil, 1-songa ilova; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda, № 7, 433-modda, № 10, 670-modda; 2019-yil, № 1, 5-modda, № 2, 47-modda, № 5, 267-modda, № 9, 589-modda, № 10, 671-modda, № 12, 880-modda; 2020-yil, № 10, 593-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsin:

1) quyidagi mazmundagi 7<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilsin:

#### **“7<sup>1</sup>-modda. Vakolatli iqtisodiy operator**

Qonunchilikda belgilangan tegishli talablarga javob beruvchi yuridik shaxslar vakolatli iqtisodiy operator maqomini olishi mumkin.

Vakolatli iqtisodiy operator maqomini olish tartibi, Vakolatli iqtisodiy operatorlar reyestriga kiritish uchun tanlash mezonlari va vakolatli iqtisodiy operator tomonidan amalga oshiriladigan maxsus soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Vakolatli iqtisodiy operatorlar reyestrini yuritadi va uning o'z rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini hamda kamida har oyda yangilab borilishini ta'minlaydi”;

2) 22-moddaning:

ikkinchi qismi:

“d” bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“d) zarur hujjatlar (bundan ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar mustasno) va ma'lumotlar taqdim etilmagan tovarlar”;

quyidagi mazmundagi “j” band bilan to'ldirilsin:

“j) bojxona yuk deklaratsiyasi topshirilguniga qadar chiqarib yuborilgan, shuningdek dastlabki, muvaqqat, to'liq bo'lmagan yoki davriy bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan holda tegishli bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar”;

uchinchi va to'rtinchi qismlari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur moddaning ikkinchi qismi “a” bandida ko'rsatib o'tilgan shartli chiqarib yuborilgan tovarlardan faqat bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar berish shartlariga muvofiq bo'lgan maqsadda foydalanilishi kerak. Mazkur tovarlardan ular shartli chiqarib yuborilgan paytdan e'tiboran uch yil ichida boshqa maqsadlarda foydalanilgan taqdirda, berilgan bojxona imtiyozlari bekor qilinib, bojxona to'lovlarini to'lash majburiyati tiklanadi.

Agar ushbu moddaning ikkinchi qismi “d” bandida ko'rsatib o'tilgan shartli chiqarib yuborilgan tovarlar uchun taqdim etilmagan muvofiqlik sertifikatini yoki sanitariya-epidemiologiya xulosasini olish talab etilsa, ushbu tovarlardan foydalanish, ularni uchinchi shaxslarga berish, shu jumladan ularni sotish yoki o'zga usulda boshqa shaxsga o'tkazish orqali berish taqiqlanadi, mazkur tovarlarni olib kirishga doir cheklovlar ushbu tovarlarning sifati va xavfsizligi tekshirilishi munosabati bilan belgilangan hollarda esa har qanday shaklda foydalanish (ishlatish) taqiqlanadi”;

3) 32-moddaning:

ikkinchi va uchinchi qismlari chiqarib tashlansin;

to'rtinchi qismi ikkinchi qism deb hisoblansin;

4) 36-moddaning ikkinchi qismi chiqarib tashlansin;

5) 38-moddaning birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini, shuningdek tovarni yetkazib berish yoki topshirish to'g'risidagi kontrakt (shartnomani, kelishuvni) (tovar ijara, lizing shartnomasi, kafolatli xizmat ko'rsatish va investitsiya loyihasi doirasida vaqtincha olib chiqilgan hollarda) taqdim etadi”;

6) 39-moddaning:

birinchi qismi chiqarib tashlansin;

ikkinchi — yettinchi qismlari tegishincha birinchi — oltinchi qismlar deb hisoblansin;

to'rtinchi qismining ikkinchi jumlasini quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tovarni vaqtincha olib chiqish muddatini uzaytirish tovarni bojxona organiga taqdim etmasdan amalga oshiriladi”;

7) 40-moddaning ikkinchi qismidagi “bojxona organining ruxsatnomasi asosida” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

8) 58-moddaning:

beshinchi va oltinchi qismlari chiqarib tashlansin;

yettinchi va sakkizinchi qismlari tegishincha beshinchi va oltinchi qismlar deb hisoblansin;

9) 61-moddaning ikkinchi qismi chiqarib tashlansin;

10) 63-moddaning birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tovarni vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini, shuningdek tovarni yetkazib berish yoki topshirish to'g'risidagi kontrakt (shartnomani, kelishuvni) (tovar ijara, lizing shartnomasi, kafolatli xizmat ko'rsatish va investitsiya loyihasi doirasida vaqtincha olib kirilgan hollarda) taqdim etadi”;

11) 64-moddaning:

birinchi qismi chiqarib tashlansin;

ikkinchi — yettinchi qismlari tegishincha birinchi — oltinchi qismlar deb hisoblansin;

uchinchi qismi:

ikkinchi xatboshisining ikkinchi jumlasini quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bunday tovarlarni vaqtincha olib kirish muddati ushbu vakolatxonalar va shaxslarning akkreditatsiya muddatidan kelib chiqqan holda belgilanadi”;

to'rtinchi xatboshisining ikkinchi jumlasini quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bunday tovarlarni vaqtincha olib kirish muddati lizing shartnomasining amal qilish muddatidan kelib chiqqan holda belgilanadi”;

oltinchi xatboshisining ikkinchi jumlasini quyidagi tahrirda bayon etilsin;

“Bunday tovarlarni vaqtincha olib kirish muddati mazkur kelishuvlarning amal qilish muddatidan kelib chiqqan holda belgilanadi”;

sakkizinchi xatboshisining o'zbekcha matnidagi “bundan buyongi” degan so'zlar “keyingi” degan so'z bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi xatboshisidagi “rivojlanish davlat dasturlariga kiritilgan” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

to'rtinchi qismining ikkinchi jumlasini quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Vaqtincha olib kirish bojxona rejimi muddatini uzaytirish bojxona yuk deklaratsiyasining tegishli bo‘lmasiga o‘zgartishlar kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi”;

12) 69-moddaning **birinchi qismi** quyidagi mazmundagi jumla bilan to‘ldirilsin:

“Vaqtincha olib kirilgan tovarlar reeksport bojxona rejimiga bir yoki bir nechta turkum bilan joylashtirilgandan so‘ng olib chiqilishi mumkin”;

13) 72-moddaning **birinchi** va **ikkinchi qismlari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tovarni bojxona hududida qayta ishlashga quyidagi talablarga va shartlarga rioya etilgan holda yo‘l qo‘yiladi:

olib kirilgan tovarni uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash;

qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini belgilash;

tovarlarning bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo‘llashga doir taqiqlar va cheklovlar ostiga tushib qolishini istisno etish;

olib kirilgan tovar uchun ushbu Kodeksning 47-bobiga muvofiq bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlash, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

tovarni bojxona hududida qayta ishlash operatsiyalarining ushbu Kodeksning 71-moddasi talablariga muvofiq bo‘lishi.

Qayta ishlash jarayoni texnik-iqtisodiy asoslarining ko‘rsatkichlari yoki identifikatsiyalash usuli yoxud qayta ishlash mahsulotlarning chiqish normasi o‘zgargan taqdirda, tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasini berish to‘g‘risida yangi ariza berilishi kerak. Bunda yuridik shaxs o‘zgartirilganligi, uning nomi yoki joylashgan eri (pochta manzili) o‘zgarganligi, jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki faoliyat ko‘rsatadigan joyi o‘zgarganligi sababli kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlari o‘zgargan taqdirda, yangi ariza berish talab etilmaydi”;

14) **74-modda:**

**birinchi qismi** quyidagi mazmundagi birinchi va ikkinchi qismlar bilan almashtirilsin:

“Tovarni qayta ishlash mahsulotlarida bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarni identifikatsiyalash tovarning va qayta ishlash bo‘yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi usullardan biri yoki bir nechtasi yordamida amalga oshirilishi mumkin:

qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarga muhrlar qo‘yish va zarur bo‘lganda shtamplar qo‘yish, raqamli tarzda va (yoki) boshqacha tarzda tamg‘alash;

qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarni batafsil tavsiflash, uni fotosuratga tushirish yoki boshqa o‘lchamda tasvirlash;

qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarning oldindan olingan namunalarini yoki nusxalarini va uning qayta ishlangan mahsulotini tadqiq etish natijalarini qiyoslash;

qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarning zavod va seriya raqamlari tarzidagi mavjud tamg‘alanishidan yoxud boshqacha tarzidagi tamg‘alanishidan foydalanish.

Tovarni qayta ishlash mahsulotlarida bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarni identifikatsiyalash qonunchilikka muvofiq boshqa usullarda ham amalga oshirilishi mumkin”;

**ikkinchi** va **uchinchi qismlari** tegishincha uchinchi va to‘rtinchi qismlar deb hisoblansin;

quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Tovarni qayta ishlash mahsulotlarida bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarni identifikatsiyalash usuli vakolatli shaxs tomonidan belgilanadi”;

15) 76-moddaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bojxona hududida qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi, agar ushbu normalar belgilangan tartibda tasdiqlanmagan bo‘lsa, tovarni qayta ishlash amalga oshiriladigan haqiqiy sharoitlardan kelib chiqqan holda, vakolatli shaxs tomonidan aniqlanadi va tasdiqlanadi, shuningdek tovarni bojxona hududida qayta ishlash ruxsatnomasi berilayotganda bojxona organi tomonidan belgilanadi.

Qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi belgilanayotganda bojxona organlari vakolatli shaxs taqdim etgan qayta ishlashning texnologik jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatlarga hamda qayta ishlashning aniq texnologik jarayoniga asoslanadi.

Vakolatli shaxs qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini aniqlashda davlat organlarining va (yoki) vakolatli organlarning xulosalariga asoslanishi mumkin.

Qayta ishlash mahsulotlarining tavsifi, miqdori, sifati qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi aniqlanganidan keyin belgilanadi”;

16) 109-moddaning **ikkinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan chakana savdo operatsiyalarini amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi, bundan qonunchilikda belgilangan hollar mustasno”;

17) 113-moddaning **ikkinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirilgan chet el tovarlari, shuningdek O'zbekiston tovarlari bojxona hududidan chiqib ketayotgan va bojxona hududiga kirib kelayotgan jismoniy shaxslarga, O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha turgan chet ellik shaxslarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxslarga ushbu bobda belgilangan shartlarda chakana holda realizatsiya qilinadi”;

18) 116-modda birinchi qismining **ikkinchi xatboshisidagi** “bojxona chegarasida joylashgan” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

19) 118-moddaning **birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tovarni bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga tranzit deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi”;

20) 121-moddaning **ikkinchi qismi** chiqarib tashlansin;

21) 128-moddaning **ikkinchi qismi** chiqarib tashlansin;

22) **129-moddaning:**

**uchinchi qismi** chiqarib tashlansin;

**to'rtinchi — yettinchi qismlari** tegishincha uchinchi — oltinchi qismlar deb hisoblansin;

**beshinchi qismidagi** “joylashtirishga ruxsatnoma olish to'g'risidagi arizaning” degan so'zlar “joylashtirishning” degan so'z bilan almashtirilsin;

**oltinchi qismidagi** “Tovarni davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirish uchun ruxsatnoma bergan bojxona organi” degan so'zlar “Bojxona organi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

23) 131-moddaning **ikkinchi qismidagi** “ruxsatnoma bergan” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

24) 132-moddaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash, bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish bojxona organi tomonidan berilgan tegishli ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi”;

25) **133-modda** chiqarib tashlansin;

26) **134-modda** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“134-modda. Tovarni bojxona hududidan tashqarida (hududida) qayta ishlashga ruxsatnoma olish uchun zarur hujjatlar**

Tovarni bojxona hududidan tashqarida (hududida) qayta ishlashga ruxsatnoma olish uchun vakolatli shaxs tovar qaysi bojxona organining faoliyat ko'rsatish zonasida turgan bo'lsa, o'sha bojxona organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun:

ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza;

qayta ishlashning texnologik jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lgan texnik-iqtisodiy asoslar (hisob-kitoblar), shuningdek vakolatli organlarning va (yoki) vakolatli tashkilotlarning (shu jumladan

bojxona laboratoriyalarining) qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normalarini belgilash uchun muayyan qayta ishlash texnologik jarayoniga asoslangan xulosalari, bundan qayta ishlash operatsiyasi ta'mirlashdan iborat bo'lgan hollar mustasno;

qayta ishlashni amalga oshirish uchun asos bo'lgan kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) yoki tovarni qayta ishlash uchun olib chiqishga va qayta ishlash mahsulotlarini olib kirishga doir kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) ko'chirma nusxasi;

2) bojxona hududida qayta ishlash uchun:

ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza;

qayta ishlashning texnologik jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan texnik-iqtisodiy asoslar (hisob-kitoblar) (bundan ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, ustav fondi (ustav kapitali)ning 50 foizi va undan ortig'i ustav fondi (ustav kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar mustasno);

tovarni qayta ishlash mahsulotlarida bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilayotgan tovarni identifikatsiyalashning vakolatli shaxs tomonidan belgilangan usuli;

vakolatli shaxs tomonidan aniqlangan qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini baholash usuli, bundan qayta ishlash operatsiyasi ta'mirlashdan iborat bo'lgan hollar mustasno;

qayta ishlashni amalga oshirish uchun asos bo'lgan kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) yoki tovarni qayta ishlash uchun olib kirishga va qayta ishlash mahsulotlarini olib chiqishga doir kontraktlarning (shartnomalarning, kelishuvlarning) ko'chirma nusxasi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida (hududida) qayta ishlashga ruxsatnoma olish uchun vakolatli shaxsdan ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi”;

27) 135-moddaning **uchinchi qismidagi** “133 va 134-moddalarida” degan so'zlar “134-moddasida” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

28) **136-moddaning:**

**ikkinchi qismi** chiqarib tashlansin;

**uchinchi qismi** ikkinchi qism deb hisoblansin;

29) 137-moddaning **birinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga yoki bojxona hududida qayta ishlashga ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati o'n ish kunidan oshmasligi kerak”;

30) 144-moddaning **matnidagi** ikkinchi jumla chiqarib tashlansin;

31) 157-moddaning **ikkinchi va uchinchi xatboshilari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuborilayotgan tovarlarga nisbatan, tovarlarni qonunchilikda belgilangan bojsiz olib kirish normasi doirasida;

jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlarda olib o'tilayotgan tovarlarga nisbatan, tovarlarni qonunchilikda belgilangan bojsiz olib kirish normasi doirasida, bundan jismoniy shaxs manziliga kelayotgan tovarlar mustasno”;

32) **161-modda** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“161-modda. Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlar uchun olib o'tilayotgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi**

Temir yo'l transportida bojxona chegarasini kesib o'tayotgan jismoniy shaxslarga, basharti bojxona nazorati qoidalariga rioya etilsa, transport vositasini tark etmagan holda bojxona operatsiyalaridan o'tish imkoniyati beriladi.

Jismoniy shaxs tomonidan olib o'tilayotgan tovarlar va (yoki) transport vositalari ularning bojxona rasmiylashtiruvini darhol amalga oshirish yoki bojxona to'lovlarini darhol to'lash imkoni bo'lmagan taqdirda vaqtincha saqlash uchun joylashtirilishi yoki bojxona hududidan olib chiqilishi lozim.